

**O'ZBEKISTONDA BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMI  
TARTIBOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Azizov Sherzod O'ktamovich**

*Bojxona instituti "Bojxona nazorati" kafedراسi boshlig'i, i.f.d., dotsent*

**Shukurov Orifjon Abduraxmonovich**

*Bojxona instituti magistratura bosqichi tinglovchisi*

**Abdullayev Shaxzodbek Jamshid o'g'li**

*Bojxona institutining tayanch doktorantura mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini oshirishda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimining ahamiyati, mavjud muammolar va ularning yechimi tahlil qilingan. Mazkur yo'nalishda ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilib, milliy bojxona tizimiga tadbqiq etish mumkin bo'lgan istiqbolli takliflar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bojxona rejimi, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi, qayta ishlash operatsiyalari, chiqish normasi, ekvivalent tovarlar, ekvivalent kompensatsiya.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется значение таможенного режима переработки на таможенной территории в повышении экспортного потенциала Республики Узбекистан, существующие проблемы и пути их решения. В этом направлении изучается передовой зарубежный опыт и представлены перспективные предложения, которые можно применить к национальной таможенной системе.*

**Ключевые слова:** *таможенный режим, таможенный режим переработки на таможенной территории, операции по переработке, норма выхода, эквивалентные товары, эквивалентная компенсация.*

**Abstract:** *This article analyzes the importance of the customs regime of inward processing in increasing the export potential of the Republic of Uzbekistan, existing problems and their solutions. In this direction, advanced foreign experiences are studied and promising proposals that can be applied to the national customs system are presented.*

**Key words:** *customs regime, customs regime of inward processing, processing operations, rates of yield, equivalent goods, equivalent compensation.*

Bugungi tez o'zgarib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodining barqaror suratlarda o'sib borishini ta'minlash uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga erishish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy moslashuvchanlikni oshirish, O'zbekiston tovarlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportni qo'llab quvvatlashda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimining o'rni beqiyos.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish yo'nalishida olib borilayotgan islohotlar hamda tadbirkorlik sub'ektlariga yaratilayotgan yengilliklarni ko'paytirish tashqi savdoning jadal rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyat (keyingi o'rinlarda - TIF) subyektlari tomonidan bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovarlarni qisqa muddatlarda tegishli bojxona rejimlariga joylashtirish, talab qilinadigan hujjatlar rasmiylashtiruvini hamda zarur ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olish tartibini soddalashtirish shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli bojxona talabidir.

Qayta ishlash protseduralarining dastlabki konsepsiyalari qadimgi davrlarda, savdogarlar tovarlarni qayta ishlash yoki ishlab chiqarish maqsadlarida barter savdolari bilan shug'ullangan paytlarda yuzaga kelgan deyish mumkin. Biroq, zamonaviy qayta ishlash bojxona rejimlari 20-asrda o'rnatilgan xalqaro savdo qoidalari va bojxona tartib-qoidalari kontekstida shakllana boshladi. Qayta ishlash bojxona rejimlarining dastlabki rasmiy asoslarini 1947-yilda tuzilgan Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuvda (GATT) topish mumkin. GATT xalqaro savdo uchun asos yaratdi va bojxona tartib-taomillari, jumladan, qayta ishlash qoidalarini ham o'z ichiga oldi. Vaqt o'tishi bilan xalqaro savdo o'sishda va rivojlanishda davom etar ekan, turli mamlakatlar va bojxona ittifoqlari bojxona va savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish tashabbuslarining bir qismi sifatida o'zlarining ichki qayta ishlash bojxona rejimlarini ishlab chiqdilar.

Bojxona hududida qayta ishlash rejimi tartibotlarini takomillashtirishga qaratilgan olimlarning ishlarini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin. Jumladan, amerikalik olim G.Gereffi, MDH olimlari R.Meshechkina, A.Kolpakov, S.Istomin, A.Suxarev, A.Antonov, N.Mojenko va turkiyalik olim S.Durular korxonalar yoki iqtisodiyotning ma'lum bir tarmoqlari tomonidan bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo'llashning samarasi, o'ziga xos xususiyatlari va ushbu rejimdan foydalanishning ushbu tarmoqlar rivojiga ta'sirini tahlil qilganlar. G.Balandina, A.Beltyukova, Ye.Fuks, U.Selen, N.Babichev, V.Lyashenko va N.Osadchalarning ishlarida esa bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashni davlat va bojxona ma'murchiligi tomonidan tartibga solish, rejimga rasmiylashtirish tartibotlarini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. V.Egiazarova va R.Kasimbekovlarning ishlarida qayta ishlash bojxona rejimlarini huquqiy tarafdin tartibga solish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Yana bir guruh olimlar – G.Georgescu, O.Parlakay, E.Nihallar mamlakat miqyosida (Ruminiya, Turkiya) bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida tovarlarni qayta ishlashning holatini, uning tendensiyasini, mamlakat iqtisodiyotida ushbu rejimni qo'llashning ahamiyatini o'rganganlar.

Bojxona hududida qayta ishlash rejimining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi asosiy o'рни, korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal foydalangan holda qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholini ish bilan ta'minlash, tashqi bozorga raqobatbardosh tovarlarni chiqarish orqali mamlakatga valyuta tushumlarini oshirish, mamlakat investitsion jozibadorligini oshirish orqali tashqi investitsiyalar oqimini ko'paytirish kabilarda namoyon bo'ladi.

Ayrim sanoati rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdosida "Bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimining o'рни yuqori hisoblanadi. Misol uchun, qayta ishlangan mahsulotlarining umumiy eksportdagi ulushi Xitoyda 35 foizni (872 mlrd doll.), Yevropa Ittifoqida 10 foizni (256 mlrd doll.)<sup>13</sup>, Turkiyada 41 foizni (65 mlrd doll.)<sup>14</sup> tashkil etadi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga bir so'z bilan bojxona to'lovlaridan ozod hudud sifatida ta'rif berishimiz mumkin. Oxirgi yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni qayta ishlashda tadbirkorlarga qulayliklar yaratishga muhim e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llashni soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-115 son Farmoni ushbu rejim imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Farmon 2022-yilning 1-mayidan kuchga kirib, u bilan bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga tovarlarni rasmiylashtirishdagi ko'plab to'siqlar olib tashlandi.

Jumladan:

- qayta ishlash operatsiyalari ro'yxati mahsulotlarni qadoqlash, o'rash, saralash, tozalash, uskunalarni modernizatsiya qilish kabi operatsiyalarni kiritish hisobiga kengaytirildi;

- bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirishda tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlash hamda sanitariya-epidemiologik xulosani taqdim etish tartibi bekor qilindi;

- maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari va vakolatli iqtisodiy operator maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash talabi olib tashlandi;

- tovarlar eksport qilingandagi moliyaviy va tarif imtiyozlari qayta ishlashdan hosil bo'lgan tayyor mahsulotlar reeksportiga ham tatbiq etilishi belgilandi.

Ushbu rejimga rasmiylashtirish jarayonlaridagi huquqiy normalarni soddalashtirish va mazkur rejim asosida TIF ishtirokchilariga taqdim etilayotgan imtiyozlarni tadbirkorlik sub'ektlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari natijasida bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni rasmiylashtirilgan

<sup>13</sup> <https://ec.europa.eu/eurostat/comext/newxtweb>

<sup>14</sup> Abdullah Takim, Ş. Mustafa Ersungur Dahilde işleme rejimi: İhracat ve ithalat üzerindeki etkisi / Abdullah Takim // Atatürk Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Dergisi. – 2010. № 2. – C. 24.

tadbirkorlik subyektlari soni 2021-yildagi 104 nafardan 2023-yilda 274 nafarga, rejimga rasmiylashtirilgan tovarlar pozitsiyalari(TIF TNning 4ta raqamli pozitsiyasi darajasida) soni esa mos yillarda 157 tadan 260 taga oshdi (1-jadval).

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimining qo'llanilish dinamikasi<sup>15</sup>

1-jadval

Yil	2019	2020	2021	2022 (1-mayga qadar)	2022 (1-maydan keyin)	2023
Rejimga rasmiylashtirgan tashkilotlar soni	49	93	104	83	163	274
Rejimga rasmiylashtirilgan tovarlar soni	124	121	157	122	194	260

Yuqoridagi Prezident Farmoni kuchga kirgan sanadan so'ng 2022-yilning oxirigacha va 2023-yil davomida jami 123 turdagi oldin bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirilmagan tovarlarning ushbu rejimga joylashtirilishiga erishildi. Ushbu tovarlar tarkibida saralash va qadoqlash maqsadida olib kirilgan ho'l va quruq mevalar, tozalash va qadoqlash maqsadida olib kirilgan o'simlik yog'i, qadoqlash uchun olib kirilgan mineral o'g'it tovarlari va ushbu tovarlarni qadoqlashda ishlatiladigan tovarlar asosiy o'rinni egallaydi.

Ushbu yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar bilan bir qatorda, mazkur rejimning keng qo'llanilishi uchun hali bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar yetarlicha. Bular:

- 1) Tadbirkorlik subyektlari bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi, uning imkoniyatlari to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emas;
- 2) bojxona kodeksidagi ekvivalent tovarlar va ekvivalent kompensatsiya uchun ko'rsatilgan talablar birmuncha murakkabligi sababli ular bilan bog'liq operatsiyalar amalda juda kam amalga oshiriladi;
- 3) ayrim tadbirkorlik subyektlarining ushbu rejim imkoniyatlaridan egri maqsadlarda foydalanib, tovarlarni almashtirib qo'yish, qaytarib olib chiqib ketilishi lozim bo'lgan tovarlarni ichki bozorga sotib yuborish holatlari ko'p uchraganligi sababli bojxona organlari tomonidan bu rejimga joylashtirilgan tovarlar ustidan kuchliroq nazorat amalga oshiriladi;
- 4) qayta ishlash maqsadida olib kirilgan xom-ashyolardan tayyorlangan tayyor mahsulotlar mamlakat bojxona hududidan olib chiqish jarayonlari ustidan nazorat hali xam avtomatlashtirilmaganligi sababli xodimlar ish samaradorligining tushishiga sabab bo'lmoqda;
- 5) qayta ishlash mahsulotlarida foydalanilgan xomashyo tovarlarini identifikatsiyalashning murakkabligi;
- 6) qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini aniqlashning noaniqligi;
- 7) qayta ishlash muddatiga amal qilmaslik.

<sup>15</sup> Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan qayta ishlangan

Bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo'llash bo'yicha xorijiy mamlakatlar amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu rejim tartibotlarini qo'llashda har bir mamlakatda bir-birini takrorlamaydigan turli xil tajribalar shakllangan. Bazi mamlakatlarda ushbu rejimni qo'llash jarayonlari birmuncha soddalashtirilganligi va avtomatlashtirilganligi, shuningdek, sohaga doir xalqaro normalarga muvofiqlashtirilganligi ushbu mamlakatlarda tovarlarni qayta ishlashning salmog'i yuqori bo'lishiga zamin yaratmoqda. Quyida ushbu xorijiy davlatlar amaliyoti va O'zbekiston amaliyotidagi ayrim ahamiyatga molik jihatlarni ko'rib o'tamiz.

"Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya" (Kioto konvensiyasi)ning "F" maxsus ilovasida bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo'llash bilan bog'liq bir qancha normalar va tavsiyalar keltirilgan bo'lib, hozirda bu tavsiyalarni amalga oshirishda O'zbekiston bojxona qonunchiligida to'liq mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

Jumladan, "F" maxsus ilovaning 13-bandida quyidagi tavsiya berilgan:

"Bojxona hududida qayta ishlash operatsiyasi:

- xususiyatlari deyarli o'zgarimas bo'lib qoladigan tovarlarni nazarda tutadigan;
- odatda aniq belgilangan texnik shartlarga muvofiq amalga oshiriladigan; va
- bir xil sifatga ega kompensatsiyalanadigan tovar olinadigan holatlarda vakolatli organlar ushbu operatsiyalar uchun tovarlarning standart chiqish normalarini belgilab qo'yishlari lozim".

O'zbekiston qonunchiligida qayta ishlash tovarlarining standart chiqish normalari belgilanmagan va chiqish normasini tovarga nisbatan vakolatli shaxsning o'zi ma'lum qilishi belgilangan. Bu holat tadbirkorlar uchun erkinlik berish baravarida qo'shimcha ma'suliyat ham yuklaydi. Bazi operatsiyalarda chiqish normasining standart belgilab qo'yilishi tadbirkorlarni zimmasidagi javobgarlikdan halos etib mavjud ikkilanishlarga barham bergan bo'lar edi.

Shuningdek, ilovaning 26-bandida quyidagi tavsiya berilgan:

"Ekvivalent kompensatsiyaga ruxsat etilgan hollarda bojxona organi kompensatsiyalanadigan tovarni qayta ishlash tovari bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilishidan oldin eksport qilishga ruxsat berishi lozim".

Ya'ni, ushbu tavsiyaga ko'ra vakolatli shaxs ekvivalent kompensatsiya-lanadigan tovarni bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirishga ruxsat etilgan hollarda bojxona hududida qayta ishlash uchun tovarni olib kirishdan oldin ekvivalent tovarni qayta ishlashdan hosil bo'lgan tovarni eksport qilishi va keyinchalik qayta ishlash uchun tovarni belgilangan tartibda bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 77-moddasiga ko'ra "Ekvivalent kompensatsiyaga, ya'ni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan, olib kirilgan tovardan olinadigan qayta ishlash mahsulotini ekvivalent tovarni qayta ishlash orqali olingan boshqa tovar bilan, shu jumladan O'zbekiston tovari bilan almashtirishga, agar tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyasi

ta'mirlashdan iborat bo'lsa, tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi asosida, shuningdek boshqa hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yo'l qo'yiladi". Shu o'rinda, ekvivalent kompensatsiyaga ta'mirlashdan tashqari hollarda faqatgina Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan yo'l qo'yilishi to'g'risidagi norma tadbirkorlik subyektlari uchun birmuncha qiyinchilik va ortiqcha ovoragarchilik keltirib chiqarishi sababli amaliyotda bunday operatsiyalar deyarli amalga oshirilmayapti.

Bojxona hududida qayta ishlash rejimi samarali natija ko'rsatib kelayotgan Yevropa Ittifoqi amaliyotini oladigan bo'lsak, unda Kioto Konvensiyasining qayta ishlash bilan bog'liq normalari to'liq amaliyotga joriy qilingan deyish mumkin. Yevropa Ittifoqining bojxona qonunchiligiga muvofiq, ekvivalent tovarlar bilan kompensatsiya qilishga yo'l qo'yiladigan qayta ishlash operatsiyalarida, ishlab chiqaruvchilarga avval eksport qilingan tayyor mahsulotni yaratishda ishlatilgan miqdordagi xomashyoga ekvivalent xomashyoni keyinchalik bojxona to'lovlarisiz olib kirishga ruxsat beriladi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilarga ushbu xomashyoni bojxona to'lovlarisiz import qilish huquqini boshqa shaxslarga o'tkazishiga ham yo'l qo'yiladi.

Bu tartibning qo'llanilishi birinchidan, qayta ishlash jarayonlarini bojxona organlari tomonidan boshdan-oxir nazorat qilish zaruratidan xalos etib, bojxona organlari zimmasidagi vazifalarni yengillashtiradi. Chunki bunda tovarni qayta ishlash mahsulotining eksporti avvaldan amalga oshirilganligi sababli qayta ishlovchi subyektning majburiyati bajarib bo'lingan hisoblanadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlarini qayta ishlash muddati davomida tovarlarga nisbatan ta'minlov summasini taqdim etish kabi majburiyatlardan ozod etib, qayta ishlash bilan bog'liq sarf harajatlarni qisqartirishga yordam beradi.

Yevropa Ittifoqida qayta ishlash bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan elektron axborot tizimi – CAS (cloud-based customs management solution) ishga tushirilgan bo'lib, tizimda qayta ishlashga ruxsatnoma olish, chiqish normasi, identifikatsiya qilish usullari, qoldiq tovarlar, tayyor mahsulot va chiqindilar hisobini yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlar avtomatlashtirilgan. Bu ham qayta ishlash jarayonlarini boshqarishni soddalashtirib tadbirkorlarga va bojxona organlariga yanada qulayliklar yaratmoqda.

Buyuk Britaniya tajribasida ekvivalent tovarlardan foydalanishga doir birmuncha optimal qoidalar o'rnatilganligini ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, qayta ishlashga olib kirilayotgan tovar va foydalaniladigan ekvivalent tovar quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aynan bir xil tovarlar bo'lishi lozim:

1. 8 xonali TIF TN kodi;
2. sifati;
3. texnik xususiyatlari;

Shuningdek, ekvivalent kompensatsiya nazarda tutilgan hollarda qayta ishlash muddati quyidagicha belgilanadi:

1. qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun 3 oy;

2. boshqa barcha tovarlar uchun 6 oy.

Bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo'llashda ijobiy natijaga erishgan yana bir mamlakat Turkiyada O'zbekistondan farqli o'laroq qayta ishlashning umumiy muddati 12 oy qilib belgilangan va ayrim turdagi amalda uzoqroq vaqt talab etadigan operatsiyalar uchun (kemasozlik, mudofaa sanoati va b.) mazkur operatsiya talab etadigan vaqtdan kelib chiqib uzoqroq muddatga ruxsat berilishi nazarda tutilgan. Xitoy qonunchiligida esa tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirish muddati aniq belgilanmagan.

Tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun qo'yiladigan asosiy talablardan bittasi bu bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash bo'lib, o'rganilgan deyarli barcha mamlakatlar tajribasida ushbu talab mavjud. Shunday bo'lsa-da, Turkiya tajribasida ayrim me'zonlarga mos keluvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ta'minot summasi to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining 1%, 5%, 10% qismi darajasigacha kamaytirish holatlari e'tiborga molik hisoblanadi.

Irlandiya tajribasiga ko'ra tovarlarni utilizatsiya qilish qayta ishlash operatsiyalari turiga kiritilgan. Bu esa ayrim qayta ishlash mumkin bo'lgan tovarlarni utilizatsiya qilishdan ikkilamchi xomashyo olish orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi.

Yuqorida o'rganilgan masalalardan kelib chiqib, O'zbekiston bojxona qoidalariga quyidagilarni tadbiiq etish maqsadga muvofiqligi to'grisida takliflar ishlab chiqildi:

- Kioto konvensiyasining "F" maxsus ilovasi 13-bandidagi tavsiyasidan kelib chiqib, tegishli soha mutaxassislarini jalb etgan holda ayrim tovarlarning standart chiqish normalarini belgilab qo'yish;

- Kioto konvensiyasi "F" maxsus ilovasi 26-bandidagi tavsiyasining to'siqsiz qo'llanilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 77-moddasiga tovarlarning ekvivalent kompensatsiyasiga ruxsat berish vakolatini Vazirlar Mahkamasidan bojxona organlariga o'tkazishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritish;

- bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasini rasmiylashtirish, tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish, ushbu rejimni yakunlash, tovarlar qoldig'i, chiqindilar va boshqa barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan elektron axborot tizimini ishlab chiqish (Yevropa Ittifoqidagi CAS tizimining analogi sifatida);

- bojxona nazorati uchun sarflanadigan vaqt va xarajatlar sarfini kamaytirish maqsadida uzoq vaqt talab etmaydigan ayrim qayta ishlash operatsiyalari uchun standart qayta ishlash muddatlarini belgilab qo'yish. Bunda, standart qayta ishlash muddatlari belgilanmagan hollarda kodeksda belgilangan ikki yillik muddatning qo'llanilishi;

- doimiy ravishda qayta ishlash operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini shakllantirib, faoliyati natijalarini baholagan holda, ishonchli deb topilgan subyektlarga bojxona to'lovlarini ta'minlash summasini

kamaytirish (masalan to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50% dan 25 foizigacha) orqali qo'llab-quvvatlash (Turkiya tajribasidan kelib chiqib);

- utilizatsiya qilish orqali sanoatda qayta ishlashga yaroqli ikkilamchi xomashyolar olish mumkin bo'lgan tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida utilizatsiya qilishga ruxsat berish (Irlandiya tajribasiga asoslangan holda);

- qadoqlash, o'rash, qayta o'rash, saralash kabi operatsiyalarga ruxsat berilgandan so'ng faol qo'llanilayotganligini inobatga olib, shuningdek, qadoqlanayotgan tovarning og'irligi, soni yoki boshqa o'lchov birligidagi miqdori va qadoqning og'irligi, soni va hokozolar aniq va bojxona organi tomonidan oddiy o'lchov usullarida nazorat qilish mumkin bo'lgani uchun ushbu operatsiyalarda ruxsatnoma olish talabini bojxona yuk deklaratsiyalarida (BYuD) chiqish normasini va qayta ishlash muddatini ma'lum qilish bilan almashtirish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Bojxona tartibotlarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro Konvensiya. – Kioto, 03.02.2006 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi: rasmiy matn. – T.: O'zbekiston, 2016. – 173 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.04.2022-yildagi PF-115-son.

4. WCO Handbook on Inward and Outward Processing Procedures, World Customs Organization, may 2017.

5. European Union Special Procedures of Processing (Inward and Outward Processing) and Temporary Admission, WTO Trade Facilitation Committee, Note from the European Commission.

6. Abdullah Takim, Ş. Mustafa Ersungur Dahilde işleme rejimi: Ihracat ve ithalat üzerindeki etkisi / Abdullah Takim // Atatürk Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Dergisi. – 2010. № 2. – C. 24.

7. <https://customs.uz>

8. <https://stat.uz>

9. <https://www.gov.uk/guidance/using-similar-goods-to-replace-customs-special-procedure-goods>

10. <https://ec.europa.eu/eurostat/comext/newxtweb>